

DAVLAT BUDJETI JARAYONIDA AHOLI FAOLLIGINI OSHIRISH ZARURATI

Mamasoliyeva Maktuba Axmadullayevna

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 19.08.2025

Revised: 20.08.2025

Accepted: 21.08.2025

KALIT SO'ZLAR:

davlat budjeti, aholi faolligi, mahalliy budjet, open budjet, budjet tashabbuskorligi, aholi tashabbusi.

Maqolada mahalladagi mavjud muammolarni hal etishda davlat byudjetining ochiqligi va jamoatchilik ishtirokining ahamiyati ta'kidlanadi. Yangi tahrirdagi Konstitusiyaga byudjet jarayonlarining ochiqlik va shffoflik prinsiplari asosida amalga oshirilishi, "Ochiq byudjet" portali ishga tushirilishi va tashabbusli byudjet – aholining mahalliy byudjet mablag'larini sarflashdagi faol ishtirok etishi mexanizmlari joriy etilganligi yoritiladi. Tashabbusli byudjet orqali mahalladagi ijtimoiy muammolar tez va samarali hal etiladi, bu jarayonga aholi keng jalb qilinadi. Loyiha mamlakatda keng tarqalgan va jamoatchilik nazoratini ta'minlashda muhim vosita sifatida xizmat qilmoqda. Shuningdek, davlat byudjetidan maqsadli foydalanish va uning shaffofligi orqali aholi farovonligini oshirishga qaratilgan konstitusion kafolatlar berilgan.

Mahallada mavjud bo'lgan muammolarni hal etish bo'yicha ayrim murojaatlarga tegishli mansabdor shaxslar tomonidan "rejaga kiritildi, moliyalashtirish bo'lsa bajaramiz" degan javoblar berilishi hech kimga sir emas. Ushbu javoblarni olgan fuqarolar mahalladagi muammolar yechimini yillab kutib turardi. Shunday holatlarni keskin ravishda oldini olish maqsadida yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizga budjetga oid alohida yangi modda kiritildi.

Eng avvalo, davlat budjetini shakllantirish hamda ijro etish tartib-taomillari ochiqlik va

shaffoflik prinsiplari asosida amalga oshirilishi belgilandi. Xususan, Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlari, soliq va budjet siyosatining asosiy yo'nalishlari loyihalari, Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlari ijrosi to'g'risidagi hisobotlar, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining xulosalarini joylashtirishni nazarda tutuvchi "Ochiq budjet" axborot portalida ishga tushirildi.

Ochiq budjet – bu fuqarolarning turli darajadagi budjetlar to'g'risida tushunchalari uchun mavjud bo'lgan ma'lumotlarni shakllantirishga qaratilgan davlat siyosati.

Alohida qayd etish joizki, fuqarolarning budjet jarayonida ishtirok etish tartibi ham paydo bo'ldi. Ya'ni tashabbusli budjet – aholining tashabbuslarini hisobga olgan holda budjet mablag'larining muayyan bir qismini sarflash bo'yicha ularning bevosita ishtirokida qarorlar qabul qilish hamda qabul qilingan qarorlarning amalga oshirilishini kuzatish amaliyoti joriy etildi.

Ushbu amaliyot orqali aholi o'zini qiynayotgan muammolar, shu jumladan mahalladagi muammolar (yo'llar, bolalar maydonchalar va h.k.) budjetga kiritish va ularni tezlik bilan hal qilish imkoni yaratildi.

Ma'lumki, Tashabbusli budjet loyihalari butun dunyo bo'yicha keng tarqalgan bo'lib, jahonda 7000 dan ortiq shaharlarda qo'llanilib kelinmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan "Ochiq budjet" davlat siyosati, budjet ustidan jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirish va bu borada to'liq axborot olish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 22 avgustdagi "Budjet ma'lumotlarining ochiqligini va budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga ko'ra, Davlat budjetiga oid axborotlarni joylashtirishni nazarda tutuvchi "Ochiq budjet" portalida ishga tushirildi. 2019 yildan boshlab budjet mablag'larini taqsimlashda fuqarolar ishtirokining tuman va shaharlar budjetlari qo'shimcha manbalarining kamida 10 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarga yo'naltirishni nazarda tutadigan mexanizm joriy etildi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 13 apreldagi "Budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, 2021 yil 1 iyuldan boshlab jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga ajratiladigan tuman (shahar)lar budjetlari qo'shimcha mablag'larining eng kam miqdorini 10 foizdan 30 foizga oshirish belgilandi.

Fuqarolar "Ochiq budjet" axborot portalida takliflarni kiritish va ovoz berish orqali o'zlarining fikriga ko'ra, mahalliy budjetlar mablag'larining qo'shimcha manbalari

hisobidan moliyalashtirishga yo'naltirish kerak bo'lgan tadbirlarni aniqlaydilar. Mazkur mexanizm fuqarolarni davlat moliyasini boshqarishga jalb qilishda amaliy instrument hamda eng quyi bo'g'inda "Ochiq budjet" portali orqali ilgari surilgan g'oyalarni amalga oshirishda muhim hisoblanadi. Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni amalga oshirish budjet to'g'risidagi ma'lumotlarga nafaqat milliy darajada, balki mahalliy darajada ham talab yuqori ekanligini ko'rsatadi.

Takliflarni qoldirish uchun jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan budjet loyihasi tashabbuskori "Ochiq budjet" portalida (openbudget.uz) ro'yxatdan o'tkaziladi.

Tashabbusli budjetlashtirish yoki partisipator budjetlashtirish – bu aholining budjet mablag'larining aniq qismlarini sarflash maqsadida tashabbuslarni ilgari surishi orqali mahalliy boshqaruvda to'g'ridan-to'g'ri ishtirok etishidir.

Tashabbusli budjetlashtirish – bu mahalliy ahamiyatdagi masalalarni budjetni jamoatchilik fikri asosida shakllantirishga asoslangan holda budjet mablag'larini sarflash ob'ektlarini aniqlash va tanlashda, shuningdek tanlangan loyihalarning amalga oshirilishini bevosita fuqarolar ishtirokida nazorat qilish orqali hal qilishning turli-tuman amaliyotlari jamlamasidir.

Tashabbusli budjetlashtirish – hududiy jamoatchilikning, fuqarolik jamiyati institutlarining va ayrim fuqarolarning o'z aholi punktlarini rivojlantirish yo'llarini belgilashdagi ishtiroki miqyosining o'sishining global tendensiyaning bir qismi hisoblanadi. Har bir mamlakatda fuqarolarni jalb etish turli yo'llar bilan amalga oshiriladi, ammo hamma joyda asosiy maqsad fuqarolarning budjet mablag'larini sarflash bo'yicha qaror qabul qilish jarayonida faol ishtirok etishidir. Bu, ayniqsa, qabul qilinayotgan qarorlar bevosita hududiy jamoatchiliklarga aloqa bo'lganida muhimdir.

Bundan tashqari, tashabbusli budjetlashtirish loyihalari budjet xarajatlari ro'yxatiga fuqarolarni o'ylantirayotgan dolzarb muammolarni hal etishga qaratilgan aniq loyihalarni tezkor kiritish imkonini beradi. Fuqarolar muammolarini budjet va boshqaruv jarayoni doirasida hal qilishning an'anaviy yo'li uch yildan kam bo'lmagan muddatni talab etsa, tashabbusli budjetlashtirishda bu jarayon deyarli ikki barobarga qisqaradi.

Voyaga yetgan barcha O'zbekiston fuqarolari o'zlarining aholi punktlarini obodonlashtirish va boshqa masalalarni hal qilishga qaratilgan budjetni jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan loyihalarni ilgari surish huquqiga ega.

Tashabbusli budjetlashtirish davlat moliyasi bilan bevosita bog'liq bo'lib, hamma joyda mintaqaviy davlat moliya siyosatining ob'ektiga aylanib bormoqda. Bu fuqarolar manfaatlaridan kelib chiqqan holda budjet mablag'laridan foydalanish ustuvorligi va

jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning samarali mexanizmlari orqali budjet mablag'laridan foydalanish samaradorligini oshiradigan vositadir. Iqtisodchi olimlar tomonidan bunday budjetlashtirishni "fuqarolar budjeti" (participatory budgeting) deb ham talqin etiladi (Sinkina, 2015).

Loyihalarni tashabbusli budjetlashtirishni tasniflashning beshta asosiy mezonlari mavjud:

budjet masalalarini muhokama qilish;

mahalliy davlat hokimiyati organlari vakillari ishtiroki;

ketma-ketlikda loyihani amalga oshirish jarayoni;

fuqarolar ishtirokida jamoatchilik muhokamasi;

jamoatchilik hisobotini tashkil etish (Vagin & other, 2015).

Shunday qilib, budjetlashtirishda ishtirokchi qarorlar qabul qilish jarayoniga, jumladan, hududlarning ijtimoiy muammolarini hal qilishda qanday harakatlar samaraliroq bo'lishi haqidagi qarorlarni qabul qilish jarayoniga jalb qiladigan maslahatchi demokratiyaning elementi sifatida ko'rish mumkin (Gavrilova, 2016).

Iqtisodchi olimlar tashabbusli budjetlashtirishining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati, demokratik jamiyat qurishda uning zarurati bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borishgan.

Xususan, Vagin V.V., Timohina E.A. fikricha, tashabbusli budjet – budjet mablag'larini sarflash ob'ektlarini belgilash va tanlashda fuqarolarning bevosita ishtirokida mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan masalalarni hal etish, shuningdek, tanlangan loyihalarni amalga oshirish ustidan keyingi monitoringni amalga oshirish bo'yicha fuqarolar tashabbusiga asoslangan turli amaliyotlar majmui (Questions on initiative budgeting, 2017).

Budjet hamjamiyati PEMPALning Budjet savodxonligi va budjet shaffofligi ishchi guruhi tomonidan nashr etilgan nashrda ta'kidlanganidek, "tashabbusli budjetlashtirish" bu "odamlar o'z mablag'laridan qanday foydalanish to'g'risida qaror qabul qiladigan mexanizm yoki jarayondir".

2021 yilda eksperiment tariqasida boshlangan "Tashabbusli budjet" ikki yil ichida yirik loyihaga aylandi. Ilk marotaba o'tkazilgan "Tashabbusli budjet" dasturida 2021 yilda 1149499 ta ovoz berilgan bo'lsa, 2022 yilning 1-mavsumida 6718133 ta, 2-mavsumi uchun 7823439 ta ovoz to'plandi. 2022 yilgi birinchi mavsumda 69700 ta, ikkinchi mavsumda yesa 61000 ta taklif tushdi. Loyiha ommalashib, tashabbusli budjetdagi tashabbuslar O'zbekistondagi mahallalarning 98 foizini qamrab oldi.

2023 yil 1-mavsumda jamoatchilik fikri asosida, ovoz berish jarayoni natijalari bo'yicha o'tkazilgan mazkur loyihada jami 33 680 ta tashabbus uchun 16 mln.dan ortiq ovoz berildi. Ovoz berish jarayoni yakunlariga ko'ra, 1 666 ta loyiha g'olib deb topildi. 2023 yilda

jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan loyihalarni moliyalashtirish uchun Davlat budjetidan 8 trln. so'm, shundan "Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturlari uchun 4 trln.so'm yo'naltiriladi.

Prezident topshirig'i bilan "Tashabbusli budjet" jarayonlarining 2023 yil 1-mavsumida ishtirok etib, har biri 2 mingdan ortiq ovoz to'plagan, lekin g'olib deb topilmagan 1 309 ta loyihani amalga oshirish uchun qo'shimcha 1,3 trln. so'm mablag' ajratiladi. Bunda, qo'shimcha 1 182 ta mahalla bo'yicha 4,3 mln. nafar fuqaro ovoz bergan loyihalar amaliyotga tatbiq etiladi.

"Tashabbusli budjet" loyihasining 2023 yildagi 2-mavsumida jami 1187 ta loyiha g'olib deb topilib, ularni amalga oshirish uchun 1,4 trln. so'mdan ortiq mablag'lar yo'naltirildi. Qayd etish joizki, "Open budjet" portali orqali 33 489 ta tashabbus uchun uchun 16,2 million ovoz berilgan.

E'tirof etish joizki, ushbu jarayonlarda fuqarolarimiz faol bo'lib, amalda ham odamlar shaxsiy manfaatlar uchun emas, ichki yo'llarni ta'mirlash, maktablar ta'miri, ichimlik suvi kabi jamiyat manfaati uchun muhim takliflarni qoldirdi. Tashabbuslari ko'p ovoz yig'ib, g'olib chiqqan mahallalar bayramlar uyushtira boshladi. Chunki endi ular mahallasidagi muammolar hal bo'lishi uchun hokimiyatning "mana bu yil, mana keyingi yil" degan va'dalari bajarilishini kutib o'tirishi shart emasdi. Bu bilan ushbu loyiha odamlarni birlashtirganiga guvoh bo'ldik.

"O'zbekiston – 2030 strategiyasi"ga muvofiq, "Mahallaning mablag'larini aholining ovoziga ko'ra, infratuzilma loyihalariga yo'naltirish amaliyotini joriy qilib, mahallalardagi muammolarni hal etish uchun ajratiladigan mablag'lar miqdorini kamida 3 barobar ko'paytirish. Aholi tashabbusi bilan infratuzilmani yaxshilashga ajratiladigan mablag'larni 24 trillion so'mga yetkazish" vazifalari belgilangan. Mazkur vazifalarning bajarilishi tashabbusli budjetlashtirish jarayonini moliyalashtirishni kengaytirish va huquqiy jihatdan kafolatlash zaruratini ko'rsatmoqda.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada belgilangan mazkur normalar yuqorida qayd etilgan ishlarning mantiqiy davomi sifatida davlat budjetini shakllantirish, uni daromad va xarajat qismlarini belgilash, ijrosini ta'minlashda fuqarolar va fuqarolik jamiyati institutlarini jalb qilish, ularga bu jarayonda keng va faol qatnashish, jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun tegishli tashkiliy va huquqiy shart-sharoitlar va kafolatlar yaratadi.

Davlat budjetidan maqsadli foydalanishni ta'minlash aholiga tibbiy xizmatlar ko'rsatish, ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlariga zarur yordam ko'rsatish, uy-joy bilan ta'minlash, tadbirkorlik va umuman, davlat va jamiyatni

hayotining boshqa barcha sohalarida samaradorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Eng asosiysi, Yangi O'zbekiston taraqqiyoti uchun mustahkam huquqiy poydevor yaratish maqsadida amalga oshirilgan Konstitutsion islohotlar xalq farovonligi va inson qadri uchun xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yefimova O.V. Finansoviy analiz: sovremenniy instrumentariy dlya prinyatiya ekonomisheskix resheniy. /usheb. / O.V. Yefimova. - 5-ye izd., ispr. - M.: Omega-L, 2014. - 348s.
2. Kazakova N.A. Finansoviy analiz. /usheb i praktikum / N.A. Kazakova. - M.: Yurayt, 2014. - 539 s.
3. Brealey R.A., Mers S.S. Principles of sorporate finanse. McGraw-Hill, 2003.
4. Kumri Nomozova. Organizational and esonomis modeling of the system of interregional industrial sooperation as a sontrol object. Proseedings of the 7th International Sonferense on Future Networks and Distributed Systems. 2023. – p. 333-343.
5. Kumri Isoyevna Nomozova. Problems of sesurity of esonomis and esologisal systems in the sountries of the sentral Asian Region. International Sonferense on Next Generation Wired/Wireless Networking. 2023. – p. 177-195.
6. Kumri Nomozova. Evolyusiya teorii predprinimatelskogo riska v rabotax vidayushixsya ushenix proshlogo. Peredovaya ekonomika i pedagogisheskie texnologii. 2025. – s. 581-587.
7. Nomozova Qumri Isoevna. Tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq risklarni sug'urta vositasida boshqarish usullari. Straxovoy rinok Uzbekistana. 2024. - 4-7 b.
8. Kumri Nomozova. Mikrostraxovanie kak innovatsionniy mexanizm upravleniya riskami malogo biznesa. Ekonomisheskoe razvitie i analiz, 2024. - s. 338-345.
9. Qumri Nomozova. Biznes risklarini sug'urtalash: zamonaviy sharoitlarda asosiy turlari va ularning xususiyatlari. Moliya va bank ishi. 2024. – 44-48 b.
10. Qumri Nomozova. Moliyaviy hisobotlar va ularni tuzish va auditorlik tekshiruvdan o'tkazishning uslubiy jihatlarini rivojlantirish. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. 2024.
11. Qumri Nomozova. O'zbekistonda tadbirkorlik tavakkalshiliklari sug'urtasini rivojlantirish istiqbollari. Straxovoy rinok Uzbekistana. 2024. – 7-10 b.
12. B.E.Toshmurodova Korporativ moliya strategiyasi– T.: “Iqtisod- moliya”, 2013. – 128 b.

13. Vahobov A.V., Malikov T.S. MoliY. Darslik. – T.: “Sharq”, 2010. – 804 b.
14. Van Xorn D.K. Osnovi upravljenja finansami/ D.K.Van Xorn; Per.s angl.; Gl. red. serii Y.V.Sokolov. -M: Finansi i statistika, 1996. - 800 s: il.
15. Publis Finanse: A Sontemporary Applisition of Theory to Polisy, Tenth Edition. David N. Hyman. 2010, 2011 South-Western, Sengage Learning
16. Malikov T., Jalilov P. Byudjet-soliq siyosati. – T.: “Akademnashr”, 2011. – 472 b.

